

**XV ASR MOVAROUNNAHRIDA XOJA AHROR VA NAQSHBANDIYA
TARIQATINING SIYOSIYLASHUVI****Shotemirov Abbos Xoshim o'g'li***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
universiteti, Tarix fakulteti magistranti***Annotatsiya**

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (1404–1490), Xoja Ahror nomi bilan mashhur, Markaziy Osiyo tasavvufi va siyosiy iqtisodiyoti tarixidagi eng muhim va bahsli shaxslardan biridir. U kechki Temuriylar davrining notinch o'tish bosqichida yashab, Naqshbandiya tariqatining sokinlikka asoslangan an'anaviy yo'lini tubdan isloh qildi. Xoja Ahror bu tariqatni faqat ruhiy-ma'naviy yo'nalishdan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qudratga ega yirik harakat darajasiga ko'tardi. Ushbu maqolada uning hayoti, "hukmdorlar bilan kurash yo'li" nomi bilan mashhur bo'lgan ilohiy islohoti, ulkan iqtisodiy ta'siri hamda Mirzo Ulug'bekning halokati va Samarqand rasadxonasining vayron etilishi bilan bog'liq ilmiy-siyosiy voqealardagi bahsli o'rni tahlil qilinadi. Xoja Ahrorning dunyoviy hokimiyat bilan strategik aloqalari keyingi Naqshbandiy peshvolari uchun namuna bo'lib, islomiy Sharqda davlat va tasavvuf o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini tubdan o'zgartirdi.

Аннотация

Ходжа Убайдуллах Ахрори Вали (1404–1490), известный как Ходжа Ахрор, является одной из самых значительных и противоречивых фигур в истории центральноазиатского суфизма и политической экономики. Живя в эпоху бурных перемен позднего Тимуридского периода, Ахрор глубоко реформировал созерцательную традицию накшбандийского тариката, преобразовав его из исключительно духовного братства в мощную социально-политическую и экономическую силу. В данной статье рассматриваются его биография, богословская реформа, известная как «путь противостояния с властителями», его колоссальное экономическое влияние, а также спорная роль в научно-политических событиях, связанных с гибелью Мирзо Улугбека и последующим разрушением Самаркандской обсерватории. Стратегическое взаимодействие Ахрора с мирской властью заложило прецедент для последующих лидеров накшбандийского ордена, радикально изменив характер отношений между государством и суфизмом в исламском Востоке.

Abstract

Khoja Ubaydulloh Ahrori Vali (1404–1490), known as Khoja Ahror, stands as one of the most consequential and controversial figures in the history of Central Asian Sufism and political economy. Living through the tumultuous transition of the late

Timurid era, Ahror profoundly reformed the quietist tradition of the Naqshbandi order, transforming it from an exclusively spiritual *tariqa* into a major socio-political and economic force. This article examines his biography, his theological reform known as "the path of conflict with the kings," his immense economic power, and his contested role in the scientific-political turmoil surrounding the demise of Mirzo Ulug'bek and the subsequent destruction of the Samarkand Observatory. Ahror's strategic engagement with temporal power established a precedent for subsequent Naqshbandi leaders, fundamentally altering the relationship between state and Sufism in the Islamic East.

Kirish

XV asr Temuriylar Uyg'onish davring eng ravnaq topgan, ilm-fan va madaniyat yuksak darajaga yetganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Samarqandda Mirzo Ulug'bekning ilm-fanga homiyligi, fors-tojik adabiyoti va islomiy tasavvufning yuksalishi kuzatildi. Ana shu ilmiy-ma'naviy muhitda Xoja Mahmud Shoshiyning o'g'li — Xoja Ubaydulloh, ya'ni Xoja Ahror Valiy, Naqshbandiya sulsilaning asoschisi Bahouddin Naqshbanddan keyingi markaziy shaxs sifatida shakllandi. Tarixiy manbalarda Xoja Ahror shaxsi turlicha talqin etiladi: u bir tomondan "Qutb ul-Aqtab" (Qutblar Qutbi) va Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblarning "murshidi komil"i — yuksak ruhiy yetakchisi sifatida ulug'lanadi. Shu bilan birga, u 1449-yilda olim va hukmdor Ulug'bekning qatl etilishiga sabab bo'lgan siyosiy-diniy qarama-qarshiliklarda ham tilga olinadi.

1. Biografiyasi va Iqtisodiy Ta'siri

Xoja Ahror 1404-yilda Toshkent yaqinidagi Bog'iston qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ta'limini Toshkent va Samarqand madrasalarida olgan. Ruhiy jihatdan u Naqshbandiya tariqatiga mansub bo'lib, o'z silsilasini Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband orqali davom ettirgan. Ya'qub Charkhiydan "irshod huquqi" — ruhiy yo'l-yo'riq berish iznini olgach, unga "Ahror" ("Ozod") unvoni berilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Xoja Ahror katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan. Unga tegishli bo'lgan yer-suvlar, bog'lar, savdo va dehqonchilik xo'jaliklari nafaqat Movarounnahrda, balki Xuroson, Toshkent va Buxoro atrofida ham mavjud bo'lgan. O.D. Chexovich tomonidan nashr etilgan "XV–XVI asrlar Samarqand hujjatlari" to'plamida 1454, 1470, 1480 va 1483 yillarga oid bir necha vaqfnomalar keltirilgan bo'lib, ularda Xoja Ahrorning Samarqandda qurdirgan madrasa, xonaqoh va masjidlari uchun katta hajmdagi yerlar, bog'lar va savdo do'konlarini vaqf etgani qayd etilgan (Chexovich, 1971, 25–29-betlar). Bu hol Xoja Ahrorning boylikni shaxsiy emas, balki ijtimoiy maqsadlarda ishlatganini tasdiqlaydi. Botirxon Valixo'jayev yozganidek, Xoja Ahror "dehqonchilikni muqaddas mehnat" deb bilgan va o'z qo'li bilan yer haydagan. Uning "Bu dunyo yerlaridan yetishtirilgan hosil jannat yo'lida yo'l

oziqasidir” (Valixo‘jayev, 2004, 5-bet) degan fikri iqtisodiy faoliyatning diniy-ma‘naviy mohiyatini ochib beradi. U o‘z yerlaridan olingan daromadlarni bevosita kambag‘allar, talabalar, darveshlar va hunarmandlarga yordam sifatida taqsimlagan. Shu bois Abdurahmon Jomiy uni “minglab yerlar egasi, ammo boyligi bilan emas, saxovati bilan mashhur zot” deb ta‘riflagan (Tuhfat ul-Ahror dostonida). Shuningdek, Xoja Ahror mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini ham ta‘minlagan. “Manoqibi Xoja Ahror”da keltirilgan bir voqeada u Sayyid Muhammad Sort ismli amaldorning zulmiga uchragan tuyaboqar Qora Ahmadni himoya qilgani aytiladi. Xoja Ahror adolatsizlikka qarshi chiqib, mazlumni himoya qilgan va bu hol “Xoja Ahrorning ruhiy qudrati bilan bir qatorda, uning iqtisodiy-siyosiy nufuzidan xalq manfaati yo‘lida foydalanganining dalilidir” (Valixo‘jayev, 2004, 4-bet). V.L. Vyatkin o‘z tadqiqotlarida Xoja Ahrorni “iqtisodiy kuch orqali ijtimoiy tinchlikni ta‘minlashga intilgan davlat arbobi” deb baholaydi (Vyatkin, 1904). Uning fikricha, Xoja Ahror o‘z obro‘sidan foydalanib, hukmdorlar o‘rtasidagi ichki nizolarni bartaraf etgan, iqtisodiy resurslarni tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida ishga solgan. Xoja Ahrorning iqtisodiy islohotlari va faoliyati Movarounnahrda dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishiga xizmat qilgan. Uning vaqf siyosati orqali yaratilgan ijtimoiy fondlar ta‘lim, ilm-fan va diniy-ma‘rifiy hayotning iqtisodiy asosini mustahkamladi. Shu sababli u zamondoshlari tomonidan “fuqarolar madadkori”, “faqirlar homiysi” sifatida ulug‘langan.

2. Naqshbandiya Islohoti: Amirlar bilan ziddiyat.

XV asrda Movarounnahrda Naqshbandiya tariqatining eng yirik vakili bo‘lgan Xoja Ubaydulloh Ahror bu ta‘limotga ijtimoiy va siyosiy mazmun kiritgan, uni faqat ma‘naviy tarbiya yo‘li emas, balki jamiyatni isloh etish vositasiga aylantirgan. Xoja Ahrorning faoliyati tariqat tarixida burilish yasab, “xalqqa xizmat qilish — Haqqa xizmat” degan g‘oyani markaziy tamoyil darajasiga ko‘tardi. Uning tashabbusi bilan Naqshbandiya tariqati ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va siyosiy mas‘uliyatni o‘z e‘tiqod tizimiga singdirdi. Bundan avvalgi Naqshbandiya shayxlari siyosatdan chetda turish, “zohidona uzlat”ni afzal ko‘rish bilan tanilgan edilar. Ammo Xoja Ahror bu qarashni isloh qildi. U hukmdorlar va amirlar bilan bevosita muloqot o‘rnatib, ularning siyosiy qarorlariga ma‘naviy ta‘sir o‘tkazishni o‘z zimmasiga oldi. Shu sababli V.V. Bartold ta‘kidlaganidek, “Ahror Naqshbandiya yo‘lini faqat zikr va uzlat tariqi emas, balki davlatni to‘g‘ri boshqarishning ma‘naviy nazorati sifatida ko‘rdi” (Ulug‘bek va uning davri, 1918). Bu islohiy faoliyat, tabiiyki, hukmron tabaqa bilan keskin to‘qnashuvlarga olib keldi. Xoja Ahrorning xalq manfaati yo‘lida hukmdorlarga ochiqchasiga e‘tiroz bildirish holatlari manbalarda ko‘plab qayd etilgan. “Manoqibi Xoja Ahror”da keltirilishicha, u Sayyid Muhammad Sort ismli amaldorning zulmiga qarshi chiqib, “Men tahqir yo‘llarini yaxshi bilaman, ammo bunday ishni senga ravo ko‘rmayman” deya ogohlantirgan, oradan oz vaqt o‘tib, mazkur amirning halok

bo'lishi bu hodisani "Xoja Ahrorning ruhiy qudratining belgisi" sifatida talqin qilingan (Valixo'jayev, 2004, 4-bet).

Shuningdek, Xoja Ahror bilan ba'zi ulamolar va amirlar o'rtasidagi ziddiyat ham tarixiy manbalarda keng yoritilgan. "Rashahot ayn ul-hayot" asarida shayxulislom Xoja Mavlono va Xoja Ahror o'rtasidagi bahsli munosabat tafsilotlari keltiriladi. Mavlono Xoja Ahrorni "mol-mulk to'plovchi dunyador" sifatida g'iybat qilgan, biroq oradan o'tgan yillarda o'zi og'ir kasallikka chalingach, "bizning qilmishlarimiz nafs g'ururidan bo'lgan, u zotdan uzr so'ranglar" deb tavba qilgan (Valixo'jayev, 2004, 3–4-betlar). Bu voqea Xoja Ahrorning ta'sir kuchi va islohiy yo'lining ma'naviy ustunligini ko'rsatadi. Xoja Ahrorning islohiy harakati natijasida Naqshbandiya tariqati xalq hayotiga yaqinlashdi, siyosiy hokimiyat ustidan ma'naviy nazoratni kuchaytirdi. Bu tariqatning keyingi asrlardagi ijtimoiy obro'siga, shuningdek, sufiylikning jamiyatdagi faol o'rniga asos bo'lib xizmat qildi. Shu tariqa, Xoja Ahror Naqshbandiya yo'lini yangi bosqichga ko'tardi — u uni xalq va davlat o'rtasidagi ma'naviy ko'priikka aylantirdi.

3. Ulug'bek atrofidagi ziddiyatlar va samrqand ilmiy markazining tanazzuli.

XV asrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqand Movarounnahrning eng yirik ilmiy va madaniy markaziga aylangan edi. Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasa, Chinixona, bog'lar hamda mashhur rasadxona Sharq ilm-fani rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Xoja Ubaydulloh Ahror aynan shu muhitda voyaga yetgan bo'lib, ilmiy-ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida bu davr muhitining ta'siri katta bo'lgan (Valixo'jayev, Buyuk ma'naviy murshid, 2004, 3-bet). Biroq Ulug'bekning ilm-fanga chuqur berilib, diniy-siyosiy doiralardan ma'lum darajada yiroqlashgan siyosati saroydagi ayrim amirlar va ulamolar noroziligiga sabab bo'ldi. Bu ziddiyatlar natijasida ilm va siyosat o'rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga keldi. Abdurauf Fitrat o'z tadqiqotlarida bu jarayon haqida shunday yozadi: "Ulug'bek zamonida mashhur Xoja Ahror Valining davrasida diniy teskarichilik kuchayib, bu hol Ulug'bekning o'limi bilan yakun topdi. Natijada, go'zal san'at va ilm markazi Samarqanddan Hirotga ko'chdi" (Valixo'jayev, 2004, 8-bet).

Shu bilan birga, B. Valixo'jayev Fitrat fikriga aniqlik kiritib, Xoja Ahror faoliyatiga ilmiy asosda baho beradi. U shunday yozadi: "Ulug'bek rasadxonasining buzilishiga Xoja Ahrorning hech qanday aloqasi yo'q, u bu hodisalarda gunohkor emas. Aksincha, u Ulug'bek vafotidan keyin ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, xalq hayotida tinchlikni qaror toptirishga harakat qilgan" (o'sha asar, 9-bet). Shuningdek, muallif Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Ulug'bekni "ilm sari yo'l ochgan sulton" sifatida madh etganini eslatadi. Bu dalil Ulug'bekning ilmiy nufuzi vafotidan keyin ham Movarounnahrda saqlanib turganini ko'rsatadi (Valixo'jayev, 2004, 10-bet). Valixo'jayevning xulosasiga ko'ra, Samarqand ilmiy markazining tanazzuli bevosita Xoja Ahror yoki Naqshbandiya tariqati faoliyati bilan bog'liq emas. Asosiy sabab

siyosiy beqarorlik, amirlar o'rtasidagi raqobat va diniy doiralar o'rtasidagi ichki kurashlar bo'lgan. Muallif, shuningdek, V.L. Vyatkin va A.N. Boldirev tadqiqotlariga tayanib, Xoja Ahror faoliyatini "davlatni barqarorlashtirish, urushlarni to'xtatish va tinchlikni saqlashga qaratilgan harakat" sifatida baholaydi (Valixo'jayev, 2004, 8–9-betlar).

Shunday qilib, tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Ulug'bek atrofidagi ziddiyatlar ilm-fan rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, Xoja Ahror bu jarayonlarda vayronkor kuch emas, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlashga intilgan shaxs sifatida tarixda muhrlangan.

Xulosa

Xoja Ubaydulloh Ahror XV asr Movarounnahr tarixida diniy-ma'naviy rahbar, iqtisodiy islohotchi va siyosiy arbob sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi. U Naqshbandiya tariqatini faqat tasavvufiy poklanish yo'li emas, balki ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy mas'uliyatni o'zida mujassam etgan faol harakatga aylantirdi. Ulug'bek davrida yuzaga kelgan diniy va ilmiy ziddiyatlar Ahror faoliyatining eng bahsli jihatlaridan biridir. Abdurauf Fitrat o'z tadqiqotlarida Xoja Ahrorni "diniy teskarichilik harakati homiysi" sifatida tilga olgan bo'lsa-da, Valixo'jayev bu fikrni rad etadi va "Ulug'bek rasadxonasining buzilishida Xoja Ahrorning aybi yo'q, u bu voqealarda bevosita ishtirok etmagan" deya qat'iy ta'kidlaydi (Valixo'jayev, 2004, 9-bet). Shuningdek, A.N. Boldirev va V.L. Vyatkin Xoja Ahrorni "davlatni barqarorlashtirish, urushlarni to'xtatish va tinchlikni tiklashga xizmat qilgan ma'naviy yetakchi" sifatida baholaydilar (Vyatkin, 1904). Demak, Xoja Ahrorning faoliyati Timuridlar davrida sufiylikni yangi bosqichga ko'tardi. U diniy hokimiyatni siyosiy mas'uliyat bilan birlashtirib, islom olamida tasavvufning ijtimoiy va siyosiy o'rni qayta belgilanishiga sabab bo'ldi. Uning iqtisodiy saxovati, ijtimoiy adolatga sodiqligi va siyosiy barqarorlik yo'lidagi faoliyati natijasida Xoja Ahror Markaziy Osiyo tarixida "fuqarolar madadkori" va "davlatni muvozanatga keltiruvchi ruhiy kuch" sifatida abadiy nom qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Valixo'jayev, B. Buyuk ma'naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Chexovich, O.D. XV–XVI asrlar Samarqand hujjatlari. – Moskva: Nauka, 1971.
3. **Fitrat, A.** *Ulug'bek va uning davri.* – Samarqand, 1927.
4. Болдирев, А.Н. "О роли суфиев в общественной жизни Средней Азии в XV веке." – Известия АН СССР, 1941.
5. Вяткин, В.Л. Хожа Ахрар и его время. – Turkestanskiy sbornik, 1904.